

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 26 774,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,3 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



107,4 %

26 774,5 mlrd. so'm



109,4 %

3,3 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



**2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**

	Mlrd. so‘m		O‘sish sur’atlari, o’tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>22 788,7</b>	<b>26 774,5</b>	<b>107,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	22 356,9	26 264,7	107,3
mahsulotlarga sof soliqlar	431,8	509,8	110,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati</b>	<b>22 356,9</b>	<b>26 264,7</b>	<b>107,3</b>
<b>qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>6 715,5</b>	<b>7 591,1</b>	<b>103,9</b>
<b>sanoat (qurilishni qo’shgan holda)</b>	<b>5 749,2</b>	<b>6 911,4</b>	<b>110,9</b>
sanoat	3 751,2	4 396,3	109,2
qurilish	1 998,0	2 515,1	114,0
<b>xizmatlar</b>	<b>9 892,2</b>	<b>11 762,2</b>	<b>107,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	3 091,8	3 689,4	108,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 463,9	1 941,2	118,5
boshqa xizmat tarmoqlari	5 336,5	6 131,6	104,0



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinish turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 13 131,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,4 % ga yuqoridir.

**2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM hajmi  
(ming so'mda)**



**2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)**





## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,1	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1,9	1,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>30,0</b>	<b>28,9</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>25,7</b>	<b>26,3</b>
sanoat	16,8	16,7
qurilish	8,9	9,6
<b>xizmatlar</b>	<b>44,3</b>	<b>44,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,8	14,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,5	7,4
boshqa xizmat tarmoqlari	24,0	23,4



2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 28,9 % ni, sanoat tarmog'i 16,7 % ni, qurilish 9,6 % ni va xizmatlar sohasi 44,8 % ni tashkil qildi.

**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2024- yil



2025- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,3 f.p. (2024- yil ning yanvar-iyunida – 2,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

**2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM  
o'sishida tarmoqlarning hissasi  
(jamiga nisbatan % da)**



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,9 %), sanoatda – 109,2 % (16,7 %), qurilishda – 114,0 % (9,6 %), xizmatlar sohasida – 107,5 % ni (44,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,3 % (14,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,5 % (7,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,0 % dan (23,4 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 109,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 110,6 % va qurilishda – 110,5 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2024- y.

2025- y.



YAHM

112,8 %

109,4 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

106,7 %

108,8 %



Sanoat

121,8 %

107,3 %



Qurilish

111,3 %

110,5 %



Xizmatlar

115,2 %

110,6 %



2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 18 127,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 15 645,7 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 69,0 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 70,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi (pasayishi) yirik korxonalar ulushining kamayishi (oshishi) bilan bog‘liq.

**Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va  
YAHMdagi ulushi  
(jamiga nisbatan %da)**

Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da



2024- yil

15 645,7

70,0 %

2025- yil

18 127,4

69,0 %

